

## ATOYI IJODIDA UNDOV SO‘ZLARNING O‘RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19504943>

**M.M.Nasillayeva**

*doktorant, Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Atoyi devonidagi undov so‘zlarning leksik-semantik hamda stilistik xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Undov birliklarning emotsional-ekspressiv ma‘no ifodalashdagi o‘rni, badiiy matndagi funksional vazifasi hamda ularning poetik nutqni shakllantirishdagi ahamiyati misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari Atoyi ijodida undov so‘zlar muhim badiiy vosita ekanligini ko‘rsatadi.

### **Kalit so‘zlar**

undov so‘zlar, leksik-semantika, stilistika, ekspressivlik, Atoyi devoni, lingvistik tahlil

### **Аннотация**

В данной статье проводится лингвистический анализ лексико-семантических и стилистических особенностей междометий в диване Атаи. Рассматривается их роль в выражении эмоционально-экспрессивных значений и функции в художественном тексте.

### **Ключевые слова**

междометия, лексика, семантика, стилистика, экспрессивность, диван Атаи

### **Abstract**

This article provides a linguistic analysis of the lexical-semantic and stylistic features of interjections in Atoi’s Divan. The role of interjections in expressing emotional-expressive meanings and their function in poetic discourse are examined.

### **Keywords**

interjections, lexicon, semantics, stylistics, expressiveness, Atoi’s Divan

Til inson tafakkuri va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi eng muhim vositalardan biridir. Badiiy adabiyotda esa til birliklari, xususan, undov so‘zlar muallifning ichki kechinmalari, emotsional holati va estetik qarashlarini ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda undov soʻzlar alohida soʻz turkumi sifatida qaraladi. Ular grammatik jihatdan boshqa soʻz turkumlari bilan mustahkam bogʻlanmaydi, koʻpincha gap boʻlaklari vazifasini bajarmaydi va oʻziga xos intonatsiya bilan talaffuz qilinadi. Undov soʻzlarning asosiy vazifasi nutqda hissiy munosabatni ifodalashdan iborat boʻlib, ular koʻpincha ogʻzaki nutqda faol qoʻllanadi. Shu bilan birga, badiiy adabiyotda ham undov soʻzlar muallif yoki lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Oʻzbek tilida undov soʻzlar turli maʼno guruhlariga ajratiladi. Jumladan, quvonch va hayratni bildiruvchi undovlar, achinish yoki afsusni ifodalovchi undovlar, murojaat yoki chaqiriq maʼnosini bildiruvchi undovlar shular jumlasidandir. Bunday birliklar nutqda qisqa va ixcham boʻlishiga qaramay, katta semantik yukni oʻzida mujassamlashtiradi. Undov soʻzlar oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyoti jarayonida ham faol qoʻllanib kelgan. Xususan, mumtoz adabiyot namunalari, jumladan, eski oʻzbek adabiy tili davriga mansub asarlarda undov soʻzlar badiiy nutqning emotsional ifodasini kuchaytirishda muhim vosita sifatida ishlatilgan. Shoir va yozuvchilar ushbu birliklardan foydalanish orqali qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini va turli emotsional holatlarini yanada taʼsirchan tarzda ifodalashga erishganlar.

Atoyi ijodi ham bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Uning “Devon”ida uchraydigan undov soʻzlar lirik qahramonning hissiy kechinmalarini ifodalashda muhim oʻrin tutadi. Ushbu undovlar nafaqat badiiy ifodaning taʼsirchanligini oshiradi, balki eski oʻzbek adabiy tilining leksik xususiyatlarini oʻrganishda ham muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Shu sababli Atoyi “Devon”ida qoʻllanilgan undov soʻzlarni tahlil qilish til tarixi nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Atoyi devonida undov soʻzlar asosan quyidagi semantik guruhlariga ajratiladi:

1. Iztirob va armon ifodalovchi undovlar (oh, voy)
2. Murojaat bildiruvchi undovlar (ayo, ey)
3. Savol va ikkilanish ifodalovchi undovlar (yo)

Bu undovlar badiiy matnda lirik qahramonning ichki kechinmalarini bevosita ochib berishga xizmat qiladi. Undov birliklar poetik nutqda yuqori darajadagi ekspressivlikni taʼminlaydi. Ular nutqning taʼsirchanligini oshiradi, obrazlilikni kuchaytiradi hamda dramatik holatni yuzaga keltiradi.

Atoyi ijodida undovlar koʻpincha takror, murojaat va ritorik savol shakllarida qoʻllanib, poetik matnning badiiy qiymatini oshiradi.

Masalan, “oh, nola” (NATIL) maʼnolarini bildiruvchi “oh” undovi Atoyi devonida eng koʻp qoʻllanilgan undov soʻz hisoblanadi. Va ijodkor uni oʻz misralarida maʼshuqaning hijronida chekkan iztirobini ifodalashga xizmat qilgan:

*Eshikta itlaring manga minnat qilurlar, oh,  
 Hech kim bo'lmasun kishining to'nu oshida. [4.36]*

Mazkur baytda lirik qahramonning ruhiy holati, jamiyatdagi o'rni va insoniy qadriyatlari borasidagi qarashlari chuqur ifoda etilgan va "oh" undovi iztirob, armon va ichki dardni ifodalab kelgan.

*Baxti gumrahdinmudur, yo Rab, manga mahrumluq,  
 Yo magar matlubig'a yetmas talabgoring saning.[4.136]*

Ushbu bayt Atoyi ijodiga xos bolgan falsafiy mushohada va emotsional iztirob uyg'unligida yaratilgan, "Yo" undovi orqali lirik qahramonning ikkilanishi va ichki savoli ifodalanadi. Bu undov ritorik savol hosil qilib, fikrning dramatikligini oshiradi.

*Ey, voy, qachon shomi firoqing tongi otgay,  
 Kim bo'ldi manga ushbu yoruq dunyo qorong'u.[4.199]*

Mazkur bayt Atoyi lirikasida firoq (ayriliq) mavzusi bilan bog'liq bo'lib, unda lirik qahramonning kuchli iztirobi, umidsizligi va ruhiy holati ifodalangan. Bayt tarkibida undov birliklar, metaforik tasvirlar, antiteza va ritorik savol kabi badiiy vositalar uyg'un qo'llangan. "Voy" undovi kuchli qayg'u va iztirobni bildiradi. U nutqqa keskin emotsional rang berib, lirik kechinmani chuqurlashtiradi.

*Ayo siymin badanlik, ol mengizlar,  
 Agar jonim kerak, oling mengizlar.[4.82]*

Mazkur bayt oshiqona lirika doirasida yaratilgan bo'lib, unda muhabbat, fidoyilik va taslimlik motivlari yetakchi o'rin tutadi. Lirik qahramon o'z sevgilisiga nisbatan cheksiz sadoqatini izhor etadi. Bayt "Ayo" undovi bilan boshlanadi. NATILda "ayo" so'zi "ey" undovi ma'nosida keluvchi so'z sifatida berilgan [1.45] Bu undov murojaat, ehtimol hamda badiiy chaqiriq kabi ma'nolarini ifodalaydi. U nutqni bevosita ma'shuqaga qaratadi va kommunikativ yo'nalishni belgilaydi. U poetik nutqqa nafislik va samimiylik bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Atoyi devonida qo'llangan undov so'zlar muhim leksik-semantik va stilistik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilingan baytlarda "oh", "yo", "voy", "ayo" kabi undov birliklar orqali lirik qahramonning ichki kechinmalari, iztirobi, murojaati va ruhiy holati yaqqol ifodalangan. Bu undov so'zlar nafaqat emotsional ifodani kuchaytiradi, balki badiiy matnning ta'sirchanligini oshirib, nutqqa jonlilik va obrazlilik bag'ishlaydi. Shuningdek, ular yordamida ritorik savollar, metaforik tasvirlar va qarama-qarshiliklar hosil qilinib, baytlarning badiiy qiymati yanada yuksaladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – Б.385.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – Б.547.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV-жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1985. – Б.561.
4. Девони Шайхзода Атойи. Т.:Фан, 2008. -320 Б.